

# Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” da o‘tqizilgan “Bitmas Xazina” Kitob Festivali

## BAYONNOMASI

16.09.2024 yil

Nº\_\_\_\_

Toshkent sh.

### Qatnashdilar:

**Z. Uralbayev** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti  
dekani muovini

**D. Maxmudova** – Universiteti xotin-qizlar raisi

**X. Mamajonova** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti  
dekani muovini

va **Xalqaro Nordik universitetining talabalari;**

2024-yilning 16-sentabr kuni O‘zbekistonning eng yirik madaniy tadbirlaridan biri bo‘lmish “Bitmas Xazina” kitob festivali o‘tkazildi. Tadbir, “Green Hills Resort” dam olish maskanida, O‘zbekistonning yetakchi ommaviy axborot vositalari va madaniyat tashkilotlarining hamkorligi bilan tashkil etildi. Ushbu festivalni “UzReport TV” telekanali tashkillashtirgan bo‘lib, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda Xalqaro Nordik universiteti "UzReport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasi" qo‘shma tashabbusi bilan tashkil etildi.

Festivalning ochilish marosimi keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutildi. Tadbirda 100 nafardan ziyod O‘zbekiston adabiyotining yorqin yulduzları – yozuvchilar, shoirlar, adabiyotshunos olimlar, nashrlar rahbarlari, tarjimonlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirot etdilar. Shu bilan birga, 10 dan ortiq mahalliy va xalqaro nashriyotlar festivalda o‘zlarining yangi nashrlarini taqdim etishdi. Bu kitob ixlosmandlari va adabiyot sevuvchilariga o‘z sevimli asarlarini topish, yangi kitoblarni o‘rganish imkoniyatini berdi.



Festival davomida ishtirokchilarni faqatgina kitoblar bilan tanishtirish emas, balki adabiyot va san’at sohasidagi so‘nggi yangiliklar, o‘zgarishlar va istiqbollar bilan tanishtirish maqsad qilingan edi. Tadbir doirasida kitobsevarlar uchun turli xil interaktiv mashg‘ulotlar, uchrashuvlar va panel munozaralar tashkil etildi. Adabiyotshunoslar, yozuvchilar va jurnalistlar o‘rtasida o‘tgan suhbatlar, zamnaviy adabiyotning rivoji, yosh yozuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, kitob nashrining kelajagi kabi

masalalar muhokama qilindi.

Festivalning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, unda faqatgina mahalliy adabiyotga e'tibor berilib qolmay, balki jahon adabiyotining eng sara asarlari ham namoyish etildi. Yozuvchilar va tarjimonlar o'z asarlarini taqdim etishdan tashqari, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdilar, adabiyotning qiyin va mehnat talab qiluvchi yo'lini, so'z san'ati va tarjimonlik kasbining qiyinchiliklarini muhokama qildilar.

Shuningdek, festivalda kitoblar ko'rgazmasi va savdo maydonlari tashkil etildi. Bu yerda ishtirokchilar yangi chiqayotgan kitoblarni ko'rish, ularni arzon narxlarda sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Nashriyotlar o'zlarining eng yangi asarlarini, jumladan, ilmiy, badiiy, bolalar va ilmiy-populyar adabiyotlarni keng jamoatchilikka taqdim etdilar. Festivalda taqdim etilgan kitoblar faqat badiiy asarlar bilan cheklanib qolmasdan, ayni paytda yosh avlodni tarbiyalash, ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan o'quv materiallari ham namoyish etildi.

"Bitmas Xazina" festivali kitobni seuvuchi har bir talaba uchun haqiqiy bayramga aylandi. Unda ishtirok etgan mashhur yozuvchilar, shoirlar va jamoatchilik vakillari kitoblarni o'qish, ulardan ilhom olish va o'z bilimlarini yanada kengaytirish imkoniyatini topdilar. Kitoblar, she'rlar, hikoyalar va romanlar orqali adabiyot olamiga sayohat qilish imkoniyati mavjud edi. Tadbirda shuningdek, yangi kitoblar va asarlar ustida ishlayotgan yozuvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda ularning yangi yaratgan asarları bilan tanishish imkoniyatlari yaratildi.

Festivalni muvaffaqiyatli yakunlash bilan talabalarimiz adabiyotga bo'lgan ehtiroslarini yana bir bor yangiladilar. "Bitmas Xazina" kitob festivali nafaqat adabiyot ixlosmandlariga, balki yangi avlod yozuvchilari va ijodkorlariga ham o'z imkoniyatlarini ko'rsatish, yaratgan asarlarini o'qib, baholab, ularga yangi shijoat bag'ishlashga katta imkoniyat berdi.

Mazkur festival universitetimiz talabalari uchun kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va xalqaro miqyosda adabiyotning o'ziga xosligini tanitish uchun muhim qadam bo'ldi. Tadbirning tashkilotchilari esa kitob va adabiyotga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga, yangi nashrlar va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga intilmoqdalar.

**Dekan muovini:**

**Z. Uralbayev**